



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 18-mart

125-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2025-yil 13-martda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoqilg‘i-energetika resurslaridan foydalanishda sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2025-yil 26-fevraldagi 121-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 124-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoqilg‘i-energetika resurslaridan foydalanishda sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2025-yil 26-fevraldagi 121-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 13-martdagi 124-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 21<sup>1</sup>-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 13-martdagi 124-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosi rahbarlik va ijrosini ta’minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 26-fevraldagi 121-son qarori bilan: quyidagilarni nazarda tutuvchi Yoqilg‘i-energetika resurslaridan foydalanishda sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi:

yoqilg‘i-energetika resurslaridan foydalanishda sodir etiladigan huquqbuzarliklarni aniqlash;

yoqilg‘i-energetika resurslaridan foydalanishda sodir etiladigan huquqbuzarliklarda moliyaviy sanksiyalarni hisob-kitob qilish va qo‘llash tartibi;

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlari 2-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanganligi e’tiborga olinsin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**